

TARIXIY TARAQQIYOT KONSEPSIYALARINING ZAMONAVIY TALQINLARI

Akramov G'iyosiddin Najmiddino'g'li

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

University of Business and Science, Ijtimoiy fanlar kafedrası katta
o'qituvchisi,

giyosiddinakramov22@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20562884>

Annotatsiya: Maqolada tarix falsafasining markaziy masalalaridan biri – tarixiy taraqqiyot konsepsiyalari va ularning zamonaviy talqinlari qiyosiy-tahliliy nuqtai nazardan o'rganiladi. Klassik chiziqli-progressiv yondashuvlar, tarixning siklik va sivilizatsion talqinlari, shuningdek XX–XXI asrlardagi zamonaviy konsepsiyalar tahlil qilinadi. Mazkur konsepsiyalarning metodologik asoslari, o'zaro farqlari hamda tarix fani va ta'limi uchun ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tarix falsafasi, tarixiy taraqqiyot, progress, chiziqli konsepsiya, siklik nazariya, sivilizatsion yondashuv, tarixiylik, jahon-tizimlari, postmodernizm, metodologiya

Аннотация. В статье с сравнительно-аналитической точки зрения рассматривается одна из центральных проблем философии истории — концепции исторического развития и их современные интерпретации. Анализируются классические линейно-прогрессивные подходы, циклические и цивилизационные трактовки истории, а также современные концепции XX–XXI веков. Раскрываются методологические основы данных концепций, их различия и значение для исторической науки и системы образования.

Ключевые слова: философия истории, историческое развитие, прогресс, линейная концепция, циклическая теория, цивилизационный подход, историзм, мир-системы, постмодернизм, методология

Abstract. *This article examines one of the central issues of the philosophy of history — the concepts of historical development and their modern interpretations from a comparative and analytical perspective. It analyzes classical linear-progressive approaches, cyclical and civilizational interpretations of history, as well as contemporary concepts of the twentieth and twenty-first centuries. The methodological foundations of these concepts, their differences, and their significance for historical science and education are revealed.*

Keywords: *philosophy of history, historical development, progress, linear concept, cyclical theory, civilizational approach, historicism, world-systems, postmodernism, methodology*

Tarix falsafasining markaziy masalalaridan biri – tarixiy jarayonning mohiyati, yo‘nalishi va ma’nosini anglashdir. Insoniyat o‘z o‘tmishini idrok etishga uringan har bir davrda tarix qanday rivojlanadi, uning harakatlantiruvchi kuchlari nimadan iborat, u muayyan maqsadga yo‘naltirilganmi yoki tasodifiy hodisalar zanjiridan iboratmi degan savollar dolzarb bo‘lib kelgan. Tarixiy taraqqiyot konsepsiyalari ana shu fundamental savollarga turli davrlar va falsafiy maktablar tomonidan berilgan javoblar majmuasini tashkil etadi. Ushbu konsepsiyalar nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki tarixni o‘rganish metodologiyasini, o‘tmishni talqin qilish usullarini va hatto jamiyatning kelajakka qarashini ham belgilab beradi.

1. Klassik chiziqli-progressiv konsepsiyalar. Tarixiy taraqqiyot g‘oyasi o‘zining tugal falsafiy ko‘rinishini Yevropa Maorifparvarlik davrida topdi. Bu davr mutafakkirlari (J. A. Kondorse, A. R. J. Tyurgo va boshqalar) insoniyat tarixini aql, ilm-fan va ma’rifatning uzluksiz o‘sib borishi sifatida, ya’ni quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab harakatlanuvchi yagona chiziqli jarayon sifatida talqin qildilar. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tarix ma’lum bir mukammallik holatiga intiluvchi, izchil va qonuniy taraqqiyotdan iboratdir.

Tarixiy taraqqiyotning eng yirik nazariy tizimlaridan birini G. V. F. Hegel yaratdi. U tarixni Mutlaq ruhning o‘z-o‘zini anglash va erkinlikni ro‘yobga chiqarish jarayoni sifatida tushundi. Hegel fikricha, jahon tarixi – bu “erkinlik ongining

taraqqiyoti”idir: u dialektik qonuniyatlar (tezis–antitezis–sintez) asosida bosqichma-bosqich rivojlanadi va har bir tarixiy davr umumiy aqliy taraqqiyotning zaruriy bo‘g‘ini hisoblanadi [1]. U “aql ayyorligi” tushunchasi orqali alohida shaxslarning xususiy maqsadlari ham, pirovardida, umumtarixiy maqsadga xizmat qilishini izohlagan. Hegelning bu g‘oyalari keyingi barcha tarix falsafasiga, jumladan dialektik va materialistik konsepsiyalarga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Pozitivizm asoschisi O. Kont tarixiy taraqqiyotni insoniy tafakkurning uch bosqichli rivojlanishi qonuni orqali izohladi. Uning fikricha, inson ongi va shu bilan birga jamiyat o‘z taraqqiyotida teologik (diniy), metafizik (falsafiy) va pozitiv (ilmiy) bosqichlarni izchil bosib o‘tadi [2]. Bu konsepsiya ham tarixni ilmiy bilimning g‘alabasi sari yo‘naltirilgan chiziqli jarayon sifatida ko‘rsatadi.

Tarixiy taraqqiyotning materialistik talqinini K. Marks ishlab chiqdi. Tarixiy materializm nazariyasiga ko‘ra, jamiyat taraqqiyotining asosini ishlab chiqarish usuli, ya’ni iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi. Marks insoniyat tarixini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning (ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va kommunizm) qonuniy almashinuvi sifatida tasavvur qildi [3]. Ushbu formatsion yondashuv XX asrda jahon tarixshunosligiga, ayniqsa sovet tarix faniga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi, biroq keyinchalik uning bir chiziqli va determinik xususiyati tanqidga uchradi.

Klassik chiziqli-progressiv konsepsiyalar insoniyat tarixiga yagona maqsad va ma’no baxsh etishi, uni izchil va tushunarli qilib ko‘rsatishi bilan katta jozibaga ega bo‘ldi. Biroq ularning umumiy zaif tomoni – barcha xalqlar va madaniyatlarni asosan Yevropa tajribasiga asoslangan yagona rivojlanish chizig‘iga bo‘ysundirish, tarixiy taraqqiyotning xilma-xilligi va o‘ziga xosligini yetarlicha hisobga olmaslik edi. Aynan shu cheklovlar tarix falsafasida muqobil – siklik va sivilizatsion yondashuvlarning rivojlanishiga turtki berdi.

2. Tarixning siklik va sivilizatsion talqinlari. Chiziqli-progressiv konsepsiyalarga muqobil ravishda tarix falsafasida siklik (davriy) yondashuv ham rivojlandi. Uning ilk yirik vakili italiyalik mutafakkir J. Viko bo‘lib, u “Yangi fan”

asarida har bir xalq o'z taraqqiyotida uch bosqichni – “xudolar asri”, “qahramonlar asri” va “insonlar asri”ni bosib o'tishini, so'ngra esa yangidan boshlanuvchi davriy harakat sodir bo'lishini asoslab berdi [4]. Viko shu tariqa tarixni takrorlanuvchi sikllar majmuasi sifatida talqin qildi.

Sharq tafakkurida tarixiy taraqqiyotning siklik talqiniga buyuk arab mutafakkiri Ibn Xaldun salmoqli hissa qo'shdi. U o'zining mashhur “Muqaddima” asarida jamiyatning yuksalishi va tanazzulini “asabiya” (ijtimoiy birdamlik, guruh hamjihatlik) tushunchasi orqali izohladi. Ibn Xaldun fikricha, davlatlar va sulolalar asabiyaning kuchayishi natijasida yuksaladi, farovonlik davrida esa bu birdamlik zaiflashib, muqarrar tanazzulga yuz tutadi; shu tariqa tarix taxminan to'rt avlod davom etadigan davriy bosqichlardan o'tadi [5]. Ko'plab tadqiqotchilar Ibn Xaldunni ijtimoiy fanlar va tarix sotsiologiyasining ilk asoschilaridan biri sifatida e'tirof etadilar.

XIX–XX asrlarda tarixning sivilizatsion talqini shakllandi. Rus mutafakkiri N. Ya. Danilevskiy “Rossiya va Yevropa” asarida yagona umumbashariy tarix g'oyasini rad etib, har biri o'ziga xos taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan “madaniy-tarixiy tiplar” haqidagi nazariyani ilgari surdi [6]. Nemis faylasufi O. Shpengler esa “Yevropaning tanazzuli” asarida madaniyatlarni tug'ilish, gullash, yetuklik va so'lish bosqichlaridan o'tuvchi tirik organizmlarga qiyosladi. Uning fikricha, har bir madaniyat muayyan hayot davriga ega bo'lib, o'z so'nggi bosqichida jonsiz “sivilizatsiya”ga aylanadi va tanazzulga yuz tutadi [7].

Ingliz tarixchisi A. Toynbi “Tarixni o'rganish” nomli ko'p jildli asarida sivilizatsion yondashuvni yanada rivojlantirdi. U tarixiy tadqiqotning asosiy birligi sifatida alohida davlat yoki millatni emas, balki sivilizatsiyani tanladi va jami yigirmadan ortiq sivilizatsiyani ajratib ko'rsatdi. Toynbining markaziy g'oyasi “da'vat va javob” (challenge and response) tamoyili bo'lib, unga ko'ra sivilizatsiyalar tabiiy va ijtimoiy sinovlarga ijodiy javob bera olgan taqdirda yuksaladi, bu qobiliyatni yo'qotgach esa, ijodkor ozchilik o'z mavqeyini boy berishi bilan, inqirozga uchraydi [8].

Tarixiy taraqqiyotning sivilizatsion-siklik talqiniga rus-amerikalik sotsiolog P. Sorokin ham muhim hissa qo'shdi. U "Ijtimoiy va madaniy dinamika" asarida madaniyatni uch tipdagi – "ideatsion" (ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirilgan), "sensitiv" (moddiy-hissiy qadriyatlarga asoslangan) va ularni uyg'unlashtiruvchi "idealistik" madaniy supertizimlarga ajratdi. Sorokin fikricha, tarix ana shu madaniy tiplarning davriy almashinuvidan, ya'ni ma'naviy va moddiy yo'nalishlar o'rtasidagi uzluksiz tebranishlardan iborat [9].

Tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos talqinini nemis faylasufi K. Yaspers taklif etdi. U "Tarixning kelib chiqishi va maqsadi" asarida miloddan avvalgi taxminan VIII–III asrlarni qamrab oluvchi "o'q davri" (Achsenszeit) tushunchasini kiritdi. Yaspers fikricha, aynan shu davrda bir-biridan mustaqil ravishda turli madaniyatlarda (Xitoy, Hindiston, Eron, Falastin, Yunoniston) buyuk ma'naviy-falsafiy yuksalish ro'y berdi va bu insoniyatning ma'naviy birligi uchun umumiy zamin yaratdi [10]. Bu konsepsiya chiziqli va sivilizatsion yondashuvlar o'rtasidagi o'ziga xos ko'prik vazifasini bajaradi.

3. XX–XXI asrlardagi zamonaviy konsepsiyalar. XX asr o'rtalarida fransuz "Annal" maktabi tarixiy taraqqiyotni tushunishga yangicha metodologik yondashuv olib kirdi. Uning yirik vakili F. Brodel tarixiy zamonni uch qatlamga – voqealar (qisqa muddatli), kon'yunkturalar (o'rta muddatli) va "uzoq davomiylik" (longue durée) ga ajratdi. Brodelning fikricha, tarixning chuqur mohiyatini geografik muhit, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalar kabi sekin o'zgaruvchi omillar belgilaydi, alohida siyosiy voqealar esa uning faqat yuza qatlamini tashkil etadi [11]. Bu yondashuv tarixni o'rganishda strukturaviy tahlilning ahamiyatini kuchaytirdi.

Amerikalik sotsiolog I. Vallersteyn "jahon-tizimlari" nazariyasini ishlab chiqdi. Unga ko'ra, zamonaviy dunyoni alohida davlatlar emas, balki XVI asrdan boshlab shakllangan yagona kapitalistik jahon-iqtisodiyoti tushuntiradi. Vallersteyn bu tizim ichida "markaz", "yarim-chekka" va "chekka" mintaqalarni ajratib ko'rsatdi va tarixiy taraqqiyotni ana shu mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy

munosabatlar va nomutanosiblik orqali izohladi [12]. Bu nazariya tarixga global va tizimli miqyosda yondashishni taqozo etadi.

XX asr o'rtalarida tarixiy taraqqiyot g'oyasiga muhim metodologik e'tiroz K. Popper tomonidan bildirildi. U "Tarixshunoslikning qashshoqligi" asarida "tarixiylik" (historitsizm), ya'ni tarix muqarrar qonunlar bilan boshqariladi va shu sababli uning kelajagini ilmiy bashorat qilish mumkin degan qarashni tanqid qildi. Popper fikricha, tarixning yagona, oldindan belgilangan yo'nalishi mavjud emas; inson bilimining o'sishi va erkin tanlovi tarixiy jarayonni ochiq va oldindan to'liq aytib bo'lmaydigan qiladi. Bu tanqid Hegel va Marks kabi mutafakkirlarning determinik konsepsiyalariga qarshi qaratilgan bo'lib, tarix falsafasidagi muhim burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi.

XX asrning so'nggi choragida postmodernizm tarixiy taraqqiyot g'oyasiga tub tanqidiy munosabat bildirdi. Fransuz faylasufi J.-F. Liotar "Postmodern holat" asarida "buyuk metabayonlar" (grands récits), jumladan progress, ozodlik va aqlning umumbashariy g'alabasi haqidagi yirik tarixiy rivoyatlarga nisbatan ishonchsizlikni postmodern davrning asosiy belgisi sifatida ta'rifladi [13]. Bu yondashuv tarixning yagona, universal va maqsadga yo'naltirilgan ekanligi haqidagi tasavvurlarni shubha ostiga oldi va ko'p ovozlilik, lokal tarixlar hamda turli talqinlarning teng huquqliligi g'oyasini ilgari surdi.

Sovuq urush tugagach, amerikalik olim F. Fukuyama "Tarixning oxiri va so'nggi inson" asarida o'ziga xos chiziqli konsepsiyani qayta ilgari surdi. Uning fikricha, mafkuraviy taraqqiyot liberal demokratiya va bozor iqtisodiyotining g'alabasi bilan o'zining mantiqiy yakuniga yetdi, bu esa "tarixning oxiri", ya'ni yirik mafkuraviy kurashlar davrining nihoyasi degani edi. Ushbu g'oya keng munozaralarga sabab bo'ldi va ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tanqid qilindi.

Fukuyama qarashlariga muqobil ravishda S. Hantington "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" konsepsiyasini taklif etdi. Unga ko'ra, Sovuq urushdan keyingi davrda jahon siyosatidagi asosiy ziddiyatlar mafkuraviy yoki iqtisodiy emas, balki madaniy-sivilizatsion tafovutlar zaminida yuzaga keladi. Hantington zamonaviy

dunyoni bir necha yirik sivilizatsiyaga bo'lib, kelajakdagi to'qnashuvlar aynan ularning chegaralarida ro'y berishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu konsepsiya sivilizatsion yondashuvni zamonaviy geosiyosat bilan bog'lab, keng e'tirof va e'tirozlarga sazovor bo'ldi.

So'nggi o'n yilliklarda "global tarix" va "katta tarix" (Big History) yo'nalishlari rivojlanmoqda. Global tarix milliy chegaralardan chiqib, savdo, migratsiya, g'oyalar va texnologiyalar almashinuvi orqali xalqlar hamda sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. "Katta tarix" esa insoniyat tarixini koinot, Yer va hayot evolyutsiyasining yagona, qamrovli jarayoni doirasida ko'rib chiqib, tabiiy va ijtimoiy fanlarni birlashtirishga intiladi. Ushbu yo'nalishlar tarixiy taraqqiyotni global va fanlararo miqyosda talqin qilishning zamonaviy namunalari hisoblanadi.

4. Zamonaviy metodologik munozaralar va tarix ta'limidagi ahamiyati.

Yuqorida ko'rib o'tilgan konsepsiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tarix falsafasida tarixiy taraqqiyotning birorta universal modeli mutlaq ustunlikka ega emas. Hozirgi metodologik munozaralar markazida bir necha asosiy masala turibdi: tarix chiziqlimi, siklikmi yoki spiralsimon harakatlanadimi; uning rivojlanishi qat'iy qonuniyatlar bilan belgilanadimi (determinizm) yoki inson irodasi va tasodif muhim rol o'ynaydimi (kontingentlik). Zamonaviy tadqiqotchilarning aksariyati ushbu yondashuvlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymaslik, balki ularning kuchli jihatlarini uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaymoqda.

Zamonaviy fanda keng tarqalgan yondashuvlardan biri tarixiy taraqqiyotni "spiralsimon" harakat sifatida tushunishdir. Bu qarash chiziqli va siklik modellarni uyg'unlashtiradi: tarix ma'lum bosqichlarni takrorlagandek ko'rinsa-da, har safar yangi va yuqoriroq sifat darajasida amalga oshadi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar tarixiy jarayonda umumiy qonuniyatlar bilan bir qatorda tasodif, alohida shaxslarning roli va muqobil rivojlanish yo'llari (alternativlik) muhim ahamiyatga ega ekanligini tan olmoqda. Bu esa o'tmishni qat'iy determinik emas, balki ko'p variantli va ochiq jarayon sifatida idrok etishga olib keladi. Zamonaviy

talqinlarning yana bir muhim yo'nalishi yevrosentrizm, ya'ni jahon tarixini faqat Yevropa taraqqiyoti nuqtai nazaridan baholash an'anasini qayta ko'rib chiqishdir. "Ko'p qirrali zamonaviylik" (multiple modernities) g'oyasi, global tarix va qiyosiy sivilizatsiyashunoslik turli xalqlar va madaniyatlarning taraqqiyotdagi o'ziga xos yo'llarini tan oladi.

Xulosa. Tarixiy taraqqiyot konsepsiyalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, tarixiy jarayonlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan: chiziqli-progressiv yondashuvlar taraqqiyotni uzluksiz yuksalish sifatida, siklik va sivilizatsion nazariyalar esa takrorlanuvchi yoki o'ziga xos sivilizatsiyalar rivoji sifatida izohlaydi. Zamonaviy konsepsiyalar tarixni murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida baholaydi. Shu bois bugungi tarix fani turli nazariyalarning ilmiy asoslangan jihatlarini uyg'unlashtiruvchi, metodologik jihatdan moslashuvchan yondashuvga tayanmoqda. Bu merosni o'rganish tarixiy tafakkurni rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida raqamli metodlar va fanlararo yondashuvlar ushbu sohada yangi tadqiqot imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hegel G.W.F. Lectures on the Philosophy of History / Trans. by J. Sibree. – London: G. Bell and Sons, 1914. (Asl nashri: Vorlesungen über die Philosophie der Geschichte, 1837.)
2. Comte A. Cours de philosophie positive. En 6 vol. – Paris, 1830–1842.
3. Marx K. Zur Kritik der politischen Ökonomie (Siyosiy iqtisod tanqidiga doir). – Berlin, 1859.
4. Vico G. La Scienza Nuova (Yangi fan). – Napoli, 1725 (qayta ishlangan nashri – 1744).
5. Ibn Xaldun. Al-Muqaddima (Muqaddima). – 1377.
6. Danilevsky N.Ya. Rossiya i Yevropa (Rossiya va Yevropa). – Sankt-Peterburg, 1869.
7. Spengler O. Der Untergang des Abendlandes (Yevropaning tanazzuli): 2 jildda. – München, 1918–1922.

8. Toynbee A.J. A Study of History: 12 vol. – Oxford: Oxford University Press, 1934–1961.
9. Sorokin P.A. Social and Cultural Dynamics: 4 vol. – New York: American Book Company, 1937–1941.
10. Jaspers K. Vom Ursprung und Ziel der Geschichte (Tarixning kelib chiqishi va maqsadi). – München, 1949.
11. Braudel F. La Méditerranée et le Monde méditerranéen à l'époque de Philippe II. – Paris: Armand Colin, 1949.
12. Wallerstein I. The Modern World-System. Vol. 1. – New York: Academic Press, 1974.
13. Popper K. The Poverty of Historicism (Tarixshunoslikning qashshoqligi). – London: Routledge, 1957.
14. Lyotard J.-F. La condition postmoderne (Postmodern holat). – Paris: Minuit, 1979.